

LINGVOKULTUROLOGIK NUQTAYI NAZARDAN O'ZBEK VA INGLIZ XALQ
OG'ZAKI IJODIGA OID BIRLIKLER TILINING TASVIRI

Shonazarova Hulkaroy Bunyod qizi

O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi ixtisoslashtirilgan
maktab o'quvchisi Xorazm, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada o'zbek va ingliz xalq og'zaki ijodi namunalari tilining tilshunosligimizdagi eng zamonaviy yo'naliishlardan biri bo'lgan lingvokulturolik tahlili berilgan. Jumladan, har bir tilga oid xalq topishmoqlarida faqat o'sha millatga mansub bo'lgan milliylik belgilari aks etishi, milliy mentalitet, milliy tafakkur, xalq psixologiyasi kabi masalalar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: topishmoqlar, lingvokulturologiya, til va madaniyat, olamning milliy til (lisoniy) manzarasi, lisoniy shaxs.

Xalq orasida topishmoq, jumboq, ba'zan matal, topar, cho'pchak kabi terminlar bilan yuritilib kelingan topishmoq janri o'zbek va boshqa qardosh xalqlar folklorida qadim zamonlardan hozirgacha yashab kelmoqda va rivojlanmoqda. Topishmoqlar o'zining mazmuni, kompozitsion qurilishi, tuzilishi bilan xilma-xildir. Topishmoq aytish qadim zamonlardan boshlab turli xalqlarning hayoti, ijtimoiy shart-sharoitlari, dunyoqarashlari, urf-odatlari, mifologik tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgan. Topishmoqlar xalqning moddiy-madaniy hayotining ba'zi etnografik tomonlarini hamda tilning leksik va grammatik boyligini o'rganishda muhim materiallar beradi. Rus xalqi orasida dekabr, yanvar oyalarida, turkmanlarda navro'z bayrami oqshomlarida, o'zbek xalqida esa boshqa qardosh xalqlar kabi kuz va qish kechalari charx yigirish, olacha to'qish kabi qo'l mehnati bilan bajariladigan turli-tuman ishlar davomida topishmoq aytish rasm bo'lgan. Topishmoq aytish qaysi bir xalqda bo'lmasin u aql-ziyraklik musoboqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgi vositasidir. Ingliz xalq folklorida ham topishmoqlar xalqning hayotini, turmush-madaniyatini, urf-odatlarini, narsalarning badiiy-estetik tomonlarini o'zida aks ettiruvchi eng qadamiy, ommaviy va ixcham janr sifatida ahamiyatlidir.

Ingliz xalq topishmoqlarini to'plab ularni ilmiy asosda o'rgangan ingliz olimi E.B.Taylorning fikricha topishmoq ma'daniyat tarixida maqol bilan birga paydo bo'lgan, uning gullagan davri stivilizatsiyaning quyi va o'rta bosqichlariga to'g'ri keladi. Uningcha, topishmoq an'anaviy savol-javob shaklidagi odatda quruq hazilga olib boruvchi shunchaki so'z o'yini emas, balki u jiddiy javob berishni talab qilgan qadimiyl shaklda tuzilgan topshiriqdir.

O'zbek va ingliz xalq topishmoqlarini o'rganish jarayonida o'sha xalqlarning milliy o'ziga xosligi, qadriyatlari, mentaliteti bilan bog'liq topishmoqlarni qiyoslashga harakat qildik.

Ma'lumki, turli oilaga mansub tillarda yaratilgan topishmoqlar leksik-semantik jihatdan butunlay farq qilishi o'z-o'zidan ayon. Masalan, qozoq xalq topishmoqlarining o'ziga xos bir turi tortishuv topishmoqlaridir. J. Adambayevaning ta'kidlashicha, bunday topishmoqlarda arabcha, forscha so'zlar ko'p uchraydi. Yoki ozarbayjon xalq topishmoqlarining lug'at sostavi umumxalq so'zlashuv tiliga yaqinligi bilan xarakterlanadi. Ingliz xalq topishmoqlari o'zbek an'anaviy xalq topishmoqlaridan ancha farqli va o'ziga xos. Ingliz xalq topishmoqlarining asosiy qismini hajviy topishmoqlar tashkil etgan bo'lib, ular o'zida ingliz yumorini mujassamlashtirgan. Ularda topishmoqning javobini topish uchun mantiqiy o'ylashgina yetarli emas, aksincha ular hajviy yo'nalishda yozilganligi sababli to'g'ri ma'no-mazmunga qarshi fikrlash talab qilinadi. Masalan, hayvonlar haqidagi ingliz xalq topishmoqlarini olib ko'radigan bo'sak:

Why do lions eat raw meat? (Because they don't know how to cook)

(Nima uchun sherlar xom go'sht yeyishadi? Chunki ular pishirishni bilishmaydi)

Why are dogs such poor dancers? (they have two left feet)

Nima uchun kuchuklar yomon raqs tushishadi? Chunki ularni ikkita chap oyog'i bor.

What do cats have that no other animals have? (kittens)

Nima mushuklarda boru boshqa hayvonlarda yo'q? (mushuk bolalari)

What is put on a table, cut, but never eaten? (a pack of cards)

Nima stolga qo'yiladi, kesiladi ammo yeyilmaydi? (karta)

What is in the middle of Paris? (the letter "R")

Parijning o'rtaida nima bor? ("r" harfi)

Hajviy yo'nalishda yozilgan topishmoqlar o'zbek xalq topishmoqlari orasida ham uchraydi, ammo ular juda kam. Masalan: Qaysi vaqtda soatga qarash mumkin emas? (Uxlaganda); Dengiz ostida qanday tosh bo'lmaydi? (quruq tosh); Besh harfdan iborat sichqon ushlaydigan qopqonni topa olasizmi? (Mushuk);

Ingliz xalq an'analari asosida yaratilgan topishmoqlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, ularda so'roq ko'pincha uning obyekti tilidan beriladi. Masalan:

I have a little house in which I live all alone.

It has no doors or windows

And if I want to go out

I must break through the well

What am I ?

(Mening kichkina uyim bor, unda yolg'iz yashayman.

Uyning oynasi ham eshigi xam yo'q.

Agar tashqariga chiqmoqchi bo'lsam, devorlarni sindirishim kerak. Men nimaman?) (Javob: tuxum ichidagi jo'ja)

Yoki:

You can see me, you can feel me,

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-9 (30- September)

But if you touch me you will die. What am I ?

(Meni ko'ra olasiz, meni sezsa olasiz. Ammo ushlasangiz halok bo'lishingiz mumkin) (Javob: quyosh)

Topishmoqlar nihoyatda ixcham, muxtasar bo'lishiga qaramay badiiy tasvir vositalariga juda boy. Topishmoqlarning uslubi metafora(istiora), ko'chim, kinoya, qochirma yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatib, yashirilgan narsa-xodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa-hodisalarning belgilarini qiyoslash, imo-ishora qilishdan iboratdir.

O'zbek xalq topishmoqlarining asosiy qismini metaforaga asoslangan topishmoqlar tashkil etadi. Metafora tasvirda obrazlilikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ingliz xalq topishmoqlari orasida ham metaforaga asoslangan topishmoqlar anchagini. Masalan:

There was a green house,

Inside the green house

There was a white house

Inside the white house there was a red house

Inside the red house there were lots of babies.

(Ko'k uy, ko'k uyning ichida oq uy, oq uyning ichida qizil uy, qizil uyning ichida ko'pgina chaqaloqlar) (Tarvuz)

Bu topishmoqda jumboqlanayotgan predmetning tashqi ko'rinishi obraz yaratishga asos bo'lgan.

Yoki: Snake coiled round and round,

Snake deep below the ground,

Snake that's never had a head,

What is snake not with dread?

(Aylana bo'lib o'ralgan ilon,

Erda cho'zilgan uzun ilon,

Hech qandayin boshsiz ilon,

Ayting bu qandayin ilon?), (Javob: arqon) Bu topishmoqda arqonning uzunligi shakl jihatdan ilonga o'xshatilgan.

Ba'zi bir topishmoqlarda metafora jonlantirish usuli bilan namoyon bo'ladi. Masalan:

Who are the two brothers who live on opposite sides of the road, yet never see each other?

(Ikkita aka-uka yo'lning ikki yoqasida yashaydi, ammo bir- birini ko'rmaydi) (Ko'z)

Biz ingliz xalq topishmoqlarini tekshirish natijasida shunday xulosaga keldikki, ushbu xalq topishmoqlarida metaforik matnli topishmoqlarga qaraganda tavsifiy matnli topishmoqlar ancha keng planni tashkil qiladi. Va ularda so'roq ko'pincha jumboqlanayotgan predmetning o'zini tilidan harakati yoki belgisi tavsiflanib beriladi. Masalan:

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-9 (30- September)

I'm white, I'm round, but not always around. Sometimes you see me, sometimes you don't. What am I?

(Men oqman, dumaloqman, ammo doim harakatdaman. Meni ba'zida ko'rasiz, ba'zida esa yo'q. Men nimaman?) (oy)

Yoki:

I have four legs but can't walk, what am I ?

(Mening to'rtta oyog'im bor ammo yurolmayman) (Stol)

Yoki:

No legs have I do run,

No lungs have I do breathe,

No life have I to live or die,

What am I ?

(Oyog'im yo'q, ammo yura olaman,

O'pkam yo'q, ammo nafas olaman,

Umrin yo'q, ammo yashayman yoki o'laman,

Men nimaman?) (Olov)

Ma'lumki, har bir xalqning o'ziga xos mentaliteti, milliy an'analar, qarashlari o'sha xalqning badiiy adabiyotida, ayniqsa, folklor asarlarida namoyon bo'ladi. Har bir xalqning og'zaki ijodi bilan tanishar ekansiz, bevosita o'sha millatning o'ziga xos mentalitetini anglay boshlaysiz. Ayniqsa, bu xalq topishmoqlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbek va ingliz tilidagi topishmoqlarni o'rganish jarayonida o'sha xalqlarning milliy o'ziga xosligi, qadriyatları, mentaliteti bilan bog'liq topishmoqlarni qiyoslashga harakat qildik va juda qiziq matnlarga duch keldik. Masalan, kitob haqidagi o'zbek xalq topishmoqini oladigan bo'lsak:

Qat-qatgina qatlama,

Aqling bo'lsa tashlama...

Bu erda kitobning ko'p varoqli ekanligi qatlamaga o'hshatilgan. Xuddi shu kitob haqidagi ingliz xalq topishmoqlarini olib ko'radigan bo'lsak, bunda butunlay boshqacha badiiy tasvir vositalaridan foydalanilgan. Masalan:

I have many leaves, but I'm not tree,

I'm a nice thing, come and read me!

(Meni ko'p barglarim bor,

Ammo daraxt emasman.

Ko'p ajoyib narsaman,

Olib o'qib tolmassan.)

Bilamizki, qatlama o'zbek milliy pishiriqlaridan biri. Ingliz tili lug'at boyligida bunday so'z ham, bu so'z anglatuvchi predmet ham mavjud emas. SHuning uchun ham ularda kitobning ko'p varoqli ekanligi ko'p bargli daraxtg'a o'xshatilgan.

Yoki quyidagi ingliz xalq topishmoqini tahlil qilib ko'rsak:

Which is lighter, the sun or the moon?

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-9 (30- September)

Biz “lighter” so‘zini o‘zbekchaga yorug‘ deb tarjima qilamiz. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib topishmoqni tarjima qilsak: qaysi biri yorug‘roq, quyoshmi yoki oy? Va topishmoqni javobi quyosh bo‘ladi degan fikr tug‘iladi. Lekin inglizlarda “lighter” so‘zini ikkinchi bir “yengil” degan ma’nosi mavjuddir. Bu topishmoqda “lighter” so‘zini aynan shu ikkinchi ma’nosi nazarda tutilyapti. Demak, bu topishmoqni “Qaysi biri engilroq, quyoshmi yoki oy?” deb tarjima qilamiz. Va javobi oy bo‘ladi.

Ba’zan ayrim-ayrim topishmoqlar birlashib ko‘p predmetli bir butun topishmoq hosil qilingan. Masalan:

There are four brothers in the world:

The first runs and never weariless,
The second eats and it never full,
The third drinks and it always thirsty,
The fourth sings a song that is never good.

(Dunyoda to‘rtta aka-uka bor:

Birinchisi yuguradi-yu, charchamaydi,
Ikkinchisi yeydi-yu, hech qachon to‘ymaydi,
Uchinchisi suv ichadiyu, hamisha chanqoq,
To‘rtinchisi qo‘sinq kuylaydi-yu, yoqimli emas)
(Suv, olov, er, shamol)

Bu topishmoqda suv, olov, er va shamolga xos bo‘lgan xususiyatlar birin-ketin tasvirlash orqali jumboqlangan. Natijada ko‘p predmetli topishmoq yuzaga kelgan.

Yoki: I give you a group of three. One is sitting down, and will never get up. The second eats as much as is given to him, yet is always hungry. The third goes away and never returns.

(Men sizga uchta narsadan iborat to‘plamni beraman. Birinchisi bitta joyda turadi va hech qachon qo‘zg‘almaydi. Ikkinchisiga qancha ko‘p narsa bersangiz ham yeydi, ammo hamisha och. Uchinchisi uzoqlarga ketadi va hech qachon qaytmaydi.) (pechka, olov, tutun)

Ingliz xalq topishmoqlari orasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri savol shaklida tuzilgan topishmoqlar ko‘p uchraydi. Bu shakldagi topishmoqlar umuman badiiylikdan holi bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri oddiy savol jumladan iboratdir. Masalan:

What teaches without talking?

(Nima so‘zlamasdan o‘rgatadi?) (Kitob)

When is a yellow dog most likely to enter a house?

(Sariq kuchuk qachon uyga oson kira oladi?) (Eshik ochiq bo‘lganda)

O‘zbek xalq topishmoqlarini ilmiy asosda to‘plab o‘rgangan olima Z.Husainova o‘zbek xalq topishmoqlari orasida ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri oddiy so‘roqdan iborat bo‘lgan topishmoqlar ham uchrashini va bu shakldagi topishmoqlar boshqa xalqlardan tarjima orqali o‘tganligini ta’kidlaydi. Masalan:

Nima soqoli bilan tug‘iladi? (echki)

Kim xar tilda gapiradi? (aks-sado)

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

VOLUME6 ISSUE-9 (30- September)

Qaysi hayvon butun qish bo'yи boshini pastga qilib uxlaydi? (Ko'rshapalak)

Xalq og'zaki ijodi uchun juda xarakterli bo'lgan variantlashish folklorning boshqa janrlariga nisbatan topishmoqlarda ko'p uchraydi. Shuning uchun ko'p topishmoqlarning bir qancha variantlari bor. Masalan, yomg'ir haqidagi topishmoqning o'zbek va ingliz xalq og'zaki ijodida bir qancha variantlari bor. O'zbek folklorida:

Meni so'raydilar,

Ko'rinsam qochadilar (yomg'ir)

Ingliz folklorida:

I am asked to come ,

I am waited for

But I make them hide

When I come (rain)

(Meni kelishimni so'rashadi,

Kelsam berkinishadi)(Yomg'ir)

Asosiy farqlanish topishmoq xususiyatiga ko'ra birgina predmetni nisbiy o'xshash xususiyati bilan obrazlashdir. Ilon o'zining shakli jihatidan qayishga, xasipga, xivichga, kamchinga o'xshatilgan. Variantlar soni va tarqalishiga qaraganda qayishga o'xshatilishi qadimiyyidir. Uning sifatini yog'li deyish ham echimni osonlashtirish va oddiy qayishdan farqi borligini eslatish uchun "semiz"ligini ta'kidlashdir. Xom qayish deyishda xam shu belgi anglashiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аникин В. П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детские фольклор. - Москва: 1957.
2. Абдуллаев Ж. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. Фан. Номз. ...дисс. – Тошкент, 1994.
3. Babanazarova S.A. O'xshatishlarda olamning lisoniy konseptuallashtirilishi. Filol.fan.nomz. ...diss. – Urganch, 2023.
4. D. Allen. Jokes, Puns and Riddles. Columbia, 1986.
5. Қобулова У. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати. Филол. Фан. Номз. ...дисс. – Тошкент, 2007.
6. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. - Тошкент: Янги аср авлоди,2004.
7. Сапарниёзова М. ўзбек халқ топишмоқларининг синтактика-семантик хусусиятлари. Филол. Фан. Номз. ...дисс. – Тошкент, 2005.
8. Taylor. English Riddles from Oral Tradition, University of Columbia, 1951.
9. T. A. Green. The folk Riddle: Redefinition of terms. New York. 1979.
10. Топишмоқлар. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи З. Ҳусаинова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-9 (30- September)

11. <http://www.edu.uz/>
12. <http://ziyo.edu.uz/>